

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

SAQIYEV QOBILJON BOSIMOVICH

**ZOMIN MILLIY TABIAT BOG‘I HOLATINING MONITORINGI VA
BIOLOGIK TIZIM TURG‘UNLIGINI TA‘MINLASH**

11.00.05-Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Saqiyev Qobiljon Bosimovich

Zomin milliy tabiat bog‘i holatining monitoringi va biologik tizim turg‘unligini ta‘minlash.....3

Сакиев Кобилжон Босимович

Мониторинг состояния Зааминского национального природного парка и обеспечение стабильности биологической системы.....20

Sakiyev Kobiljon Bosimovich

Monitoring the condition of the Zaamin National Natural Park and ensuring the stability of the biological system.....38

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**SAQIYEV QOBILJON BOSIMOVICH
ZOMIN MILLIY TABIAT BOG‘I HOLATINING MONITORINGI VA
BIOLOGIK TIZIM TURG‘UNLIGINI TA‘MINLASH**

11.00.05-Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/B1598. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Sattarov Muzaffar Eshtemirovich**
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Juliyev Muxiddin Komilovich**
biologiya fanlari doktori, dotsent

Faxrutdinova Mashkura Fazlitdinovna
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat agrar universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.B.01.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil "21" noyabr kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.: +99871-246-15-44).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (176-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, Tel.: (+99871) 246-67-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "06" noyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "noyabr" 06 daqi 34-raqamli reestr bayonnomasi).



T.U.Raximova
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

R.X.Allaberdiev
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik Ilmiy kengash kotibi,
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Z.A.Jabbarov
Ilmiy daraja beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda yuz berayotgan iqlim o'zgarishi, turli antropogen ta'sirlar, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish kabi omillar tufayli muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va tabiat bog'lari ekotizimlarining barqarorligi va ulardagi biologik xilma-xillikning saqlanishida jiddiy xavflar kuzatilmoqda. Ushbu ekologik omillar o'z navbatida tabiiy resurslardan nooqilona foydalanishda ekotizim muvozanatining buzilishi, tuproqlarning degradatsiyaga uchrashi, atmosfera havosining ifloslanishi hamda sodir bo'layotgan yong'in xavfi kabi jarayonlarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli global miqyosdagi tabiat bog'larini muhofaza qilish, ularni tabiiy va antropogen omillar ta'sirida sodir bo'ladigan yong'in xavfidan asrash hamda tezkor samarali choralar ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda rivojlangan davlatlarda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda bioxilma-xillikni saqlash, undan oqilona foydalanish va samarali boshqaruvni tashkil etish borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va milliy tabiat bog'larini asrash, ulardan teng huquqli foydalanish va ekologik tahdidlardan biri bo'lgan yong'inlarning oldini olishga qaratilgan chuqur ilmiy tadqiqotlar orqali Germaniya, Fransiya, Rossiya, AQSh va Kanada kabi davlatlarda barqaror ekologik rivojlanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham atrof-muhitda to'planayotgan toksik ta'sir etuvchi elementlarni kamaytirish, atrof-muhit holatini yaxshilash va ifloslangan maydonlarni rekonstruktsiya qilish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” ni amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajribalar, shuningdek, “O'zbekiston – 2030” strategiyasining uchinchi yo'nalishida “.....biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta'minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni 12 foizgacha kengaytirish”¹ ga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan. Bu borada hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, biologik xilma-xillikka nisbatan aholining ekologik madaniyati va xabardorligi darajasini oshirish, xususan, Zomin milliy tabiat bog'ida sodir bo'lgan yong'in holatini monitoring qilish va uning biologik tizim turg'unligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi “Zomin” turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umum mavsumiy kurortini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-6201-son farmoni² va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-apreldagi 254-son qarorining 4-ilovasida keltirilgan “Zomin” turistik-rekreatsion zonasini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish hamda hududda turizm sohasini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari” dasturining 34-bandi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida 11.09.2023 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni.

² “Zomin” turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umum mavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 06.04.2021 yildagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6201-sonli Farmoni.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xoʻjaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Zomin milliy tabiat bogʻining tabiiy iqlim sharoitlari, tuproqlari va oʻsimlik dunyosi boʻyicha koʻpchilik olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O.E.Knorring (1916), M.G.Popov va N.Andrasov (1936), V.P.Drobov (1938-1950), V.D.Dmitriyev (1938), I.M.Zakrejevskiy (1935), Y.Y.Korotkova (1955), Y.M.Demurina, (1975), I.A.Kulbachniy (1981), M.F.Faxrutdinova (1998), U.P.Pratov, M.M.Nabiev (2007), V.N.Talskix, O.V.Mitropolskiy (2008), A.S.Esanqulov (2012), Y.O.Mitropolskaya (2013), N.S.Abdullayeva (2016), N.S.Abdullayeva, O.K.Xodjimatomov, N.X.Qarshiboyeva, Z.A.Yangibayeva (2017), B.T.Ergashev, H.X.Abdurasulov (2022) va boshqalarning ilmiy ishlari bevosita Zomin milliy tabiat bogʻi bilan bogʻliq. Ammo ushbu tadqiqotlarda Zomin milliy tabiat bogʻining holati va biologik tizim turgʻunligini taʼminlash toʻgʻrisida maʼlumotlar deyarli uchramaydi.

Umuman olganda, Zomin milliy tabiat bogʻida antropogen omillar taʼsirida sodir boʻlgan yongʻin holatini monitoring qilish, shuningdek, zamonaviy GAT texnologiyalari yordamida, ayniqsa, masofadan zondlash maʼlumotlari asosida tuproq tarkibi va harorati hamda oʻsimlik qoplaminig oʻzgarish dinamikasini tahlil qilish, koʻp yillik yogʻingarchilik holatini baholash va biologik tizim turgʻunligini taʼminlash boʻyicha tadqiqot ishlari deyarli amalga oshirilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-avgustdagi 458-sonli “Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorining 3-ilovasi 1-bandi “Tabiiy resurslardan foydalanishda atrof-muhitga etkazilgan zarar miqdorini kamaytirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” (2022-2023-y.) mavzusi hamda Ekologiya vazirligining 2024-yil 6-martdagi № 3/2024-sonli “Zarar yetkazilgan tabiat obyektini tiklash va uning muayyan muddat davomida muhofaza qilinishini taʼminlash tartibini ishlab chiqish” mavzusidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Zomin milliy tabiat bogʻiga antropogen omillarning salbiy taʼsirlarini aniqlash va GAT dasturlari yordamida ekologik holatini monitoring qilish orqali yongʻin sodir boʻlgan hududning biologik tizim turgʻunligini taʼminlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Zomin milliy tabiat bogʻida yongʻin sodir boʻlgan hududning ekologik holati, relyefi va tuproqlari, shuningdek, oʻsimliklar qoplami iborat dominant maydonchalarni tanlagan holda biologik tizim turgʻunligini monitoring qilish;

Zomin milliy tabiat bog‘i hududida GAT dasturlari yordamida masofadan zondlash orqali o‘simlik qoplami hamda meteorologik ma‘lumotlar asosida tuproq haroratining o‘zgarish dinamikasini tahlil qilish va xaritalarini tuzish;

Zomin milliy tabiat bog‘i hududida ArcMap dasturining ArcToolbox bo‘limi hamda cridata sayti ma‘lumotlaridan foydalanib ko‘p yillik yog‘ingarchilik miqdorining o‘zgarish dinamikasini tahlil qilgan holda xaritalarini tuzish;

Zomin milliy tabiat bog‘ida ekoturizmning rivojlanishi hamda iqlim o‘zgarishi, tuproq haroratining oshishi va yog‘ingarchilik miqdorining kamayishi kabi jarayonlar ta‘sirida sodir bo‘ladigan yong‘in xavfining oldini olishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi Zomin milliy tabiat bog‘ining yong‘in sodir bo‘lgan hududi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini bioxilma-xillik, o‘simliklar va hayvonot olami, tuproq qoplami, ekologiya, ekologik va antropogen omillar tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Olib borilgan dala tadqiqotlari umumqabul qilingan standartlar bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lib, ekologik monitoring, normativ hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish, umumlashtirish usullari hamda masofaviy zondlash ma‘lumotlaridan, shuningdek, xorijiy davlatlar SRTM va TIF formatdagi sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari [AQSh Geologiya xizmati], ArcGIS, QGIS, ArcGIS Pro dasturlari hamda Aeronavtika milliy boshqarma va Koinotga oid fazoviy tadqiqot (NASA), (Shuttle Radar Topography Mission, SRTM) sun‘iy yo‘ldosh radar tasviri (Digital elevation model, DEM) dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Zomin milliy tabiat bog‘ida yong‘in sodir bo‘lgan hududning relyefi, tuproq tarkibi va uning oziqa elementlari bilan ta‘minlanganligi hamda o‘simliklar bilan qoplanganlik darajasiga ko‘ra, 3 ta tadqiqot maydonchasi tanlangan va baholangan.

Uzoq yillar mobaynida iqlim o‘zgarishi ta‘sirida hudud tuproqlarining harorati o‘rtacha 1,5-2,5°C oshganligi tufayli o‘simlik va hayvonot dunyosi, tuproq qoplami hamda biologik tizim turg‘unligiga zarar etayotganligi, shuningdek, antropogen omil sababli hududda yong‘in sodir bo‘lishi natijasida 100 turdan ortiq o‘simliklar, jumladan, bir va ko‘p yillik o‘tlar, 1000 ga yaqin archa daraxtlari, na‘matak, zirk, bodomcha, uchqat kabi butalarning yonib ketganligi aniqlangan.

Zomin milliy tabiat bog‘i hududini Google earth va ArcGIS, QGIS dasturlari yordamida masofadan zondlash orqali o‘simlik qoplaminin dinamik o‘zgarishi hamda 20 xil kamyob, 107 xil dorivor va ozuqabop hamda 6 xil yovvoyi holda o‘suvchi o‘simliklarning texnik turlari mavjudligi aniqlangan. Shuningdek, *Landsat* sun‘iy yo‘ldoshi, ArcMap dasturining ArcToolbox bo‘limi va cridata sayti hamda meteorologik ma‘lumotlari asosida hudud bo‘yicha ko‘p yillik yog‘ingarchilik hamda tuproq harorati xaritalari tuzilgan.

Zomin erkin turistik zonasida sayyohlik jozibadorligini yanada oshirish maqsadida dasturiy “*Zomin Travel*” mobil ilovasi hamda hududda kuzatuv kameralari, yong‘in xavfsizligi va maishiy qattiq chiqindilarni boshqarishga doir ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Hududning uzoq yillar mobaynida global isish ta'sirida tuproq harorati oshganligi, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda tuproq qoplamiga jiddiy xavf tug'dirayotganligi Google earth va ArcGIS, QGIS dasturlari yordamida aniqlangan;

Inson faoliyati ta'sirida yong'in sodir bo'lishi natijasida 100 turdan ortiq bir va ko'p yillik o'simliklar, archa daraxtlari hamda na'matak, zirk, bodomcha, uchqat kabi butalarning nobud bo'lganligi aniqlangan;

O'simlik qoplamining dinamik o'zgarishi sharoitida 20 xil kamyob, 107 xil dorivor va ozuqabop hamda 6 xil yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning texnik turlari mavjudligi aniqlangan;

Hudud bo'yicha ko'p yillik yog'ingarchilik va tuproq harorati xaritalari IDW interpolyatsiya yondashuvi usulida ishlab chiqilgan;

Hududning turistik zonasida sayyohlik jozibadorligini yanada oshirishga qaratilgan dasturiy "*Zomin Travel*" mobil ilovasi va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalarining ishonchlilik darajasi ko'p yillik monitoring va dala tadqiqotlari natijasida olingan eksperimental materialning katta hajmi bilan, sinalgan metodlardan keng foydalanish, dastlabki materialning reprezentativ hajmi va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan, nufuzli xorijiy va respublika amaliy jurnallarida chop etilganligi, natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, Zomin milliy tabiat bog'ida yong'in sodir bo'lgan hududning ekologik holati, relyefi va tuproqlari, shuningdek, o'simliklar qoplamidan iborat dominant maydonchalarni tanlagan holda biologik tizim turg'unligi monitoring qilinganligi, GAT dasturlari yordamida masofadan zondlash orqali o'simlik qoplami hamda meteorologik ma'lumotlar asosida tuproq haroratining o'zgarish dinamikasi tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, hududda Google earth va ArcGIS dasturlari Climate Data ma'lumotlari yordamida uzoq yillar mobaynida global isish ta'sirida havo harorati, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda tuproq qoplami shuningdek, biologik tizim turg'unligiga jiddiy xavf tug'dirayotganligi aks etgan ko'p yillik yog'ingarchilik va tuproq harorati xaritalari ishlab chiqilishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zomin milliy tabiat bog'ining ekologik holati monitoringi va biologik tizim turg'unligini ta'minlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Global iqlim o'zgarishi sharoitida *ArcMap* dasturi va meteorologik ma'lumotlar tahlili asosida yog'ingarchilik xaritasi Jizzax viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi hamda Zomin milliy tabiat bog'ida amaliyotga joriy etilgan (*O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2024-yil 26-avgustdagi 03-03/3-8315-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, alohida muhofaza etiladigan tabiiy

hududlar ekotizimini boshqarishda o‘rmon xo‘jaligida yong‘in xavfini kamaytirish tizimini ishlab chiqish imkonini bergan;

ArcMap dasturi va meteorologik ma‘lumotlar tahlili asosida tuproq harorati xaritasi Jizzax viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi hamda Zomin milliy tabiat bog‘ida amaliyotga joriy etilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 26-avgustdagi 03-03/3-8315-sonli ma‘lumotnomasi*). Natijada, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda rekultivatsiya ishlari hamda qurigan o‘simlik chiqindilaridan tozalash ishlarini olib borish imkonini bergan;

Zomin erkin turistik zonasi hududlarining sayyohlik jozibadorligini yanada oshirishga qaratilgan tavsiyanoma O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasida amaliyotga joriy etilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 6-avgustdagi 03-12-17-4956-sonli ma‘lumotnomasi*). Natijada, Zomin milliy tabiat bog‘i hududida sayyohlar yaqindan tanishish uchun mehmonxonalar, mehmon uylari va dam olish maskanlarida xonalarni oldindan band qilish, shuningdek, turar joy manzilini yuklab olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot ishi natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy maqola chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Milliy tabiat bog‘i va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning hozirgi holatini o‘rganish darajasi”** deb nomlangan **birinchi bobida** bugungi kunda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va tabiat bog‘i to‘g‘risidagi manbalar asosan hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan me‘yoriy hujjatlarda aks etganligi, shuningdek, ularning ekologik holati va antropogen omillar ta‘siri bo‘yicha ilmiy yondoshuvlar asosida tavsiyalar berishni taqozo etishiga e‘tibor qaratilgan. Tabiat bog‘larining faoliyati uchun yo‘llar, boshqa

kommunikatsiyalar va inshootlar qurilishi zarur boʻlgan hollarda buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, shuningdek, yongʻin xavfining oldini olishga qaratilgan antropogen omillarni inobatga olgan holda, ekologik holati va biologik tizim turgʻunligini monitoring qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga bagʻishlangan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning “Tadqiqot obyekti tabiiy-iqlim sharoitining oʻziga xos xususiyatlari va oʻrganish usullari” deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqot obyekti, materiallari va oʻrganish usullari keltirilgan.

Oʻrganilayotgan hududning tabiiy-geografik joylashuvi, geologik tuzilishi va gidrologiyasi, iqlimi, tuproqlari hamda oʻsimlik dunyosi, shuningdek, masofadan zondlash orqali oʻsimlik qoplaminig oʻzgarish dinamikasini tahlil qilish usuli, IDW interpolyatsiya usulidan foydalanish, ArcMap va IDW interpolyatsiya yordamida yogʻingarchilikni xaritalash usuli va IDW interpolyatsiya usulidan foydalanish haqida maʼlumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tanlangan hududning ekologik holati va biologik tizim turgʻunligini monitoring tahlili”** deb nomlangan **uchinchi bobida** Zomin milliy tabiat bogʻining ekologik holati va biologik tizim turgʻunligini monitoringi yuritishda asosiy dominant tabiiy iqlim sharoiti, relyefi, geomorfologik tuzilishi va hududda tarqalgan tuproqlari, shuningdek, oʻsimlik dunyosi hozirgi holati boʻyicha 2022-2024-yillardagi izlanishlar ilmiy tahlillari keltirilgan. Har qanday hududning ekologik holati va unga tabiiy, antropogen omillar taʼsirini baholashda, uning relyefi va geografik joylashuvi, tuproqlari hamda oʻsimlik qoplami asosiy parametrlar hisoblanadi.

Zomin milliy tabiat bogʻi hududida tarqalgan togʻ jigarrang tuproqlar toʻq tusli boʻz tuproqlarga nisbatan – 1300-1600 m balandlikda, janubiy qiyaliklarda esa, 2000 m balandlikda ham uchraydi. Ularda asosan bugʻdoyiq – *agropyrum truchopgorbm*, naʼmatak – *rosa sp*, togʻ yalpizi – *pao bulbosa*, duk choʻp – *lonisera korolkovii* va boshqa oʻsimliklar tarqalgan.

Togʻ jigarrang tipik tuproqlar Chotqol va Turkiston togʻ tizmalarining butasimon oʻsimliklar bilan qoplangan qiyaliklarida uchraydi. Ular jigarrang karbonatli tuproqlardan yuqorida, dengiz sathidan 1600-2400 m balandlikda joylashgan boʻlib, butasimonlar va siyrak archazorlar tarqalgan.

1-jadval

Zomin milliy tabiat bogʻi hududidagi togʻ jigarrang tuproqlarning morfologik tuzilishi

Tuproq tiplari, tipchalar	Morfologik belgilari								
	Chimli ,sm	Rangi	Agregatik	karbonatlar, sm (maks)	loyqalanish, sm		yangi yaralma	mexanik arkibi	ona jinsi
					boshlani shi	maks.			
Togʻ jigarrang tuproqlar									
Karbonatli	2-4	toʻq jigarrang	kesakch ali donador	17	10-15	20-25	karb.b irik.	oʻrta qumoq	ellyuviy, delyuviy. lyoss,

Tipik	3-7-	qoramtir jigarrang	donador	45	10-15	45-50	karb. birik.	o'rta qumoq	delyuviy. Prolyuviy lyoss,
Ishqorsizlangan	4-10-	qoramtir to'q ko'ng'ir	donador	95	10-15	65-70	oz sonli karb. bir	o'rta qumoq	

Tog' jigarrang ishqorsizlangan tuproqlar bir muncha sernam hududlarda asosan tipik jigarrang tuproqlardan yuqorida yoki birgalikda tarqalgan bo'ladi. Tuproq qoplami tabiiy daraxtlar – zarang, olma, grek yong'og'i va turli o't o'simliklardan iborat.


Tog' jigarrang tuproqlar tipik, karbonatli va ishqorsizlangan tipda tarqalgan, ular quyidagi morfologik belgilari, ya'ni:

-To'q kulrang-jigarrang tovlanuvchan gumusli qatlam, chirindining kam yoki ko'pligi och yoki to'q jigarrang tusda bo'lishi hamda yuqoridan pastga keskin o'zgarishi.

-Ba'zida tuproq profili kuchsiz loylanganligi, shuningdek, yotqizilgan ona jinsga nisbatan mexanik tarkibi og'irlashgan hamda zichroq bo'lishi.

-Gumusli qatlami g'ovakli donador, kesmaning chuqurligi oshgan sari yong'oqsimon kesakchali, changsimon strukturali ekanligi.

-Kesmada karbonatli qatlamning aks etishi yuzasida uncha sezilarli bo'lmasa-da, pastki qatlamlarda bir oz yaqqol ko'rinadi. Karbonatlar oqko'zanaklar tipida (beloglazki) uchrashi hamda quyosh nuri yaxshi tushadigan ochiq qiyaliklarda tarqalishi bilan ajralib turadi (1-jadval, 1-rasm).




EKSPLIKATSIYA

Tog' jigarrang tuproqlar mintaqasi

№	Tuproqlar	Gumus, %	Umumiy, %		Zahira, t/ga (0-50sm)		Nishabligi	Ekspozitsiyasi
			Azot	Fosfor	Gumus	Azot		
1	Tog' jigarrang tipik	4,48	0,345	0,240	145,6	12,3	5-7 ⁰	J- sh
2	Tog' jigarrang karbonatli	2,63	0,186	0,170	60,3	5,7	8-10 ⁰	J
3	Tog' jigarrang ishqorsizlangan	5,52	0,410	0,246	144,6	11,1	3-5 ⁰	J


1-rasm. Zomin milliy tabiat bog'i hududida tadqiqot maydonchalarining tuproqlari xaritanomasi

Dala tadqiqotlaridan (TM-1, TM-2, TM-3) tog‘ jigarrang tuproqlarning oziqa elementlar bilan ta‘minlanganlik darajasi quyidagicha, bu yerda o‘simlik qoplami uchun zarur asosiy oziqa elementlari, ya‘ni harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy hamda gumus miqdorlarining ta‘minlanganligi keltirilgan (2.3.4-rasmlar).



Tuproqning harakatchan fosfor bilan ta‘minlanganligi	1 kg tuproqda harakatchan fosfor miqdori <i>mg</i>		
	Ranglar	Guruhlanish	Ta‘minlanganlik
		0-15	Juda kam
		16-30	Kam
		31-45	O‘rtacha
		46-60	Yuqori
		60 dan ortiq	Juda yuqori


2-rasm. Zomin milliy tabiat bog‘i hududida tadqiqot maydonchalarining tuproqlari tarkibida harakatchan fosfor bilan ta‘minlanganlik xaritanomasi (mg/kg hisobida)



Tuproqning almashinuvchan kaliy bilan ta'minlanganligi	1 kg tuproqda almashinuvchan kaliy miqdori mg	Maydonlar bo'yicha nisbati
Ranglar	Guruhlanish	Ta'minlanganlik
	0-100	Juda kam
	101-200	Kam
	201-300	O'rtacha
	301-400	Yuqori
	400 dan ortiq	Juda yuqori

3-rasm. Zomin milliy tabiat bog'i hududida tadqiqot maydonchalarining tuproqlari tarkibida almashinuvchan kaliy bilan ta'minlanganlik xaritanomasi (mg/kg hisobida)

Tadqiqot tahlillariga ko'ra, Zomin milliy tabiat bog'i hududida 2021-yilda sodir bo'lgan yong'in oqibatida tuproq va o'simlik qoplamiga jiddiy shikast yetgan edi. Ushbu hududda 3 ta tadqiqot maydonchasini tashkil etib, biologik tizim turg'unligining monitoringi o'tkazildi. Dala tadqiqot va laboratoriya tahlillari asosida tuproq tarkibi va oziqa elementlar bilan ta'minlanganligi bo'yicha xaritanomalar ishlab chiqildi. 2022-2023-yillarda tuproq tahlil ishlari olib borildi va 2024-yilda o'simlik bilan qoplanganlik darajasini aniqlandi.



Tuproqning gumus bilan ta'minlanganligi	1 kg tuproqda gumus miqdori %	
Ranglar	Guruhlanish	Ta'minlanganlik
	0-0,80	Juda kam
	0,81-1,20	Kam
	1,21-1,60	O'rtacha
	1,61-2,00	Yuqori
	>2,00 dan ortiq	Juda yuqori

4-rasm. Zomin milliy tabiat bog'i hududida tadqiqot maydonchalarining tuproqlari tarkibida gumus miqdori bilan ta'minlanganlik xaritanomasi (% hisobida)

Hozirgi vaqtda antropogen omillar ta'siri yangi turlar hosil bo'lishi va mavjud turlarning kamayib ketishiga sabab bo'lmoqda.


2-jadval

Zomin milliy tabiat bog'i hududida 2014-2024-yillar davomida aniqlangan turlar

O'simliklar	Turlar soni				
	2014-yi	2016-y	2018-y	2020-y	2024-yil Yong'in sodir bo'lgandan keyin
<i>Suvo'ltlar</i>	3	3	3	3	3
Zamburug'lar:	4	4	4	4	4
a) mikromitsetlar	5	5	5	5	5
b) makromitsetlar	6	6	6	6	6
Lishayniklar					
Jami tuban o'simliklar	18	18	18	18	18
Moxsimonlar-yo'sinlar	9	9	9	9	9
Paprotniksimonlar	24	24	24	24	24
Ochiq urug'lilar	274	274	274	274	274
Yopiq urug'lilar (gulli o'simliklar)	400	400	400	400	400

Zomin milliy tabiat bog'i hududida uchraydigan o'simliklardan suvo'ti – 3 ta, zamburug'lardan mikromitsetlar – 4 ta, makromitsetlar – 5 ta, shuningdek, lishayniklar – 6 ta turlari uchraydi. Bu o'simliklar yong'in sodir bo'lgan hududlarda keyingi holatda uchrashi kuzatildi. Bundan tashqari, tuban o'simliklarni –18 ta, moxsimonlar – 9 ta, paprotniksimonlar – 24 ta, ochiq urug'lilar 274 ta, yopiq urug'lilarning esa 400 ta turlari mavjud. Bu o'simliklar ham yong'in sodir bo'lgan hududlarda asta-sekinlik bilan tiklanishi, ya'ni biologik tizim turg'unligi ta'minlanishini kuzatishimiz mumkin (2-jadval).

Zomin milliy tabiat bog'i o'simlik dunyosiga bir qancha antropogen omillar ta'sir ko'rsatadi. Xususan, hududda va uning tashqarisida aholi tomonidan qoramollarni betartib boqish, tog' yonbag'irlariga qishloq xo'jalik ekinlarini ekish maqsadida tabiiy zaxiralarni yo'qotish, yoqilg'i uchun ishlatish, dorivor maqsadda ko'p miqdorda rejasiz terib olish, daraxtlarni kesish va yo'l qurilishi uchun foydalanish, tabiiy ofatlar (sel, tabiiy yong'in, iqlim nosozligi va hokazolar) o'simlik dunyosining kamayib ketishiga olib kelmoqda.



O'simlik bilan qoplanganlik darajasi	
Ranglar	Ta'minlanganlik
	O'rta
	Yuqori
	Juda yuqori


5-rasm. Zomin milliy tabiat bog'i hududida tadqiqot maydonchalarining o'simlik bilan qoplanganlik darajasi xaritanomasi (% hisobida)

So'nggi yillarda tabiatda antropogen (shuningdek, texnogen) ta'sirning ortib borishi, ekologik o'zgarishlarning sodir bo'layotgani hamda o'rmonlar egallagan hududlardagi daraxtlarning kesilishi tufayli ularning maydonlari qisqarishi oqibatida tabiiy bioxilma-xillikka putur yetdi, ko'plab o'simlik va hayvon turlari butunlay yo'qolib bormoqda yoki ularning soni keskin kamayib ketyapti.

Bugungi kunda milliy tabiat bog'ida sutemizuvchilarning 30 turi, sudralib yuruvchilarning 14 ta, qushlarning 101 ta turi mavjud. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitob"iga kiritilgan 6 turkumga mansub sutemizuvchi hayvonlardan Tyanshan qo'ng'ir ayig'i, Turkiston silovsini, qor qoplani va tog' arxari uchraydi.

Hududda olib borilgan kuzatish ishlaridan shular ma'lum bo'ldiki, kamyob dorivor o'simliklar hududning yuqori adir va tog'ning o'rta va yuqori qismlarida tarqalgan. Yuqori adir va pastki tog' hududlarida aholi yashaganligi tufayli ko'p o'simliklarning zaxirasi kamayganligi kuzatiladi. Zomin milliy tabiat bog'i dorivor o'simliklari kamayib ketayotganligining asosiy sabablari aholi tomonidan ziravor, dorivor va yem-xashak sifatida ko'p miqdorda yig'ishtirib olishdir. Olingan natijalarga ko'ra, hududda tarqalgan dorivor o'simliklar 107 tur, shundan 11 tasi kamyob, 5 ta O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga (2019) kiritilgan.


Dissertatsiyaning “Zomin milliy tabiat bog‘ini IDW interpolatsiyalash va ArcMap dasturi yordamida xaritalash orqali o‘zgarish dinamikasini baholash” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Zomin milliy tabiat bog‘ining o‘simlik qoplamini *Landsat* sun‘iy yo‘ldoshi ma’lumotlari asosida o‘rganish, ArcMap dasturi yordamida Zomin milliy tabiat bog‘ining tuproq haroratini meteorologik ma’lumotlar asosida xaritalash: IDW interpolatsiya yondashuvi, Yog‘ingarchilik xaritasini tuzishning ahamiyati va sayyohlar soni va ularning atrof-muhitga ta’siri haqida ma’lumotlar keltirilgan.



6-rasm. Zomin milliy tabiat bog‘i NDVI ko‘rsatkichlari 1:100 000 miqyosida

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tabiiy hududning o‘zini-o‘zi tiklashi – tabiiy suksessiya jarayoni tabiiy jarayon hisoblanib, unga inson omili zarur emasligi, aksincha hududning iqlimi, tuproq unumdorligi, yog‘in miqdori, shamol yo‘nalishi, joylashuv va tabiiy hududning nishabligi kabi omillar muhim rol o‘ynashi aniqlandi (5-rasm).


Zomin milliy tabiat bog‘ining o‘simlik qoplami o‘zgarish dinamikasini masofadan zondlash ma’lumotlari asosida tahlil qilish muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni doimiy kuzatib borish, hududlarda yuz berishi mumkin bo‘lgan tabiiy va texnogen hodisalarni bashorat qilish va ularning oldini olish mumkin. Qolaversa, antropogen omillar tufayli tabiatga yetkazilgan zararni to‘g‘ri baholash va ularni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.



7-rasm. Zomin milliy bog‘i tuproq haroratining vaqt davomida (2021-2024-y.y.) o‘zgarishi a) 2021-yil; b) 2022-yil; c) 2023-yil; d) 2024-yil

Tuproq harorati ozuqa moddalarining aylanishiga, o‘simliklarning o‘shishiga va turli tuproq jarayonlariga katta ta’sir qiladi. O‘rmon tuprog‘i haroratini aniq xaritalash o‘rmonlarni barqaror boshqarish, ekotizimni saqlash va iqlim o‘zgarishini tadqiq qilish uchun zarurdir. ArcMap va teskari masofani tortish (IDW) interpolyatsiya usuli yordamida o‘rmon tuprog‘i haroratini xaritalashning ahamiyati tobora oshib bormoqda. O‘rmon tuprog‘i harorati haqidagi ma’lumotlar odatda tuproq profilidagi turli chuqurliklarda joylashgan harorat sensorlari yordamida to‘planadi. Ushbu sensorlar doimiy ravishda tuproq haroratini qayd yetib, vaqt seriyasi ma’lumotlarini yaratadi. Zomin milliy bog‘i tuproq haroratining vaqt davomida (2021-2024-y.y.) o‘zgarish jarayonini quyidagi rasmda ko‘rish mumkin. Keyingi paytda global iqlim o‘zgarishi bevosita bizning hududlarimiz iqlimiga, shu jumladan, Zomin milliy tabiat bog‘ining tuproqlariga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning tuproq haroratini xaritalashning amaliy ahamiyati katta bo‘lib, hududlarda rukultivatsiya

ishlarini olib borish, qurigan o'simlik chiqindilaridan tozalash va boshqa amaliy ishlarni olib borish imkonini beradi (6-rasm).



8-rasm. Zomin milliy bog'i hududida yog'ingarchilikning vaqt davomida (2021-2024-yy.) o'zgarishi a) 2021-yil; b) 2022-yil; c) 2023-yil; d) 2024-yil

Yog'ingarchilik xaritasini tuzishning ahamiyati shundan iboratki, bu xarita yordamida o'rmon ekotizimini boshqarish, bioxilma-xillikni asrash, yog'ingarchilik shakllarini bilish, qurg'oqchilik stressi yoki yog'ingarchilik kamayishi mumkin bo'lgan hududlarda sug'orish yoki o't o'chirish uchun suv kabi resurslarni taqsimlash imkonini beradi (7-rasm).

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zlarishi vazirligi huzuridagi Hidrometeorologiya xizmati agentligi ma'lumotlari asosida ArcMap dasturidan foydalanib tuzilgan quyidagi xaritalarda yillar davomida Zomin milliy tabiat bog'ida yog'ingarchilik holatining o'zgarish dinamikasini ko'rishimiz mumkin.

Zomin milliy tabiat bog'i hududida yog'ingarchilik miqdorini o'zgarib borish dinamikasini o'rganish ushbu hududda o'simlik qoplaminig o'zgarishini, hududda hayvonot dunyosining tarqalishi va migratsiyasini baholash imkonini beradi.

ArcMap va meteorologik stansiya ma'lumotlaridan foydalangan holda yog'ingarchilik xaritasini, ayniqsa, IDW interpolatsiya usuli bilan birgalikda tuzish, o'rmon ekotizimini boshqarish va o'rmon yong'inlarining oldini olish uchun ajralmas vosita hisoblanadi. U o'rmon boshqaruvchilari va yong'in xavfsizligi organlariga resurslarni taqsimlash, barqaror o'rmon xo'jaligi amaliyoti va o'rmon yong'inlari xavfini kamaytirish bo'yicha asosli qarorlar qabul qilish uchun qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi. Sog'lom o'rmon ekotizimlarini

saqlash va o‘rmon yong‘inlari xavfini kamaytirish atrof-muhitni muhofaza qilish va jamoat xavfsizligi uchun juda muhimdir. Yog‘ingarchilik xaritasi ushbu maqsadlarga erishishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda hududga sayyohlar sonining ortishi Zomin milliy tabiat bog‘ining tabiiy landshaftiga sezilarli ta‘sir etmoqda. Jumladan, 2021-yilda milliy tabiat bog‘iga tashrif buyugan sayyohlar soni 94792 nafarni tashkil etgan. Bu ushbu hududda sayyohlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar bilan bog‘liq. 2022-yilda sayyohlar umumiy soni 101410 nafarni tashkil etdi. 2022-yilda Zomin milliy tabiat bog‘iga tashrif buyurgan sayyohlar sonini tahlil qilganimizda sayyohlar tashrifi may-sentyabr oylarida ham yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi. Bunga sabab hududda turizm salohiyati ortishi va tashrif buyuruvchilar uchun ko‘proq qulay sharoitlar yaratilishidir. Jumladan, 2640 metrli Zomin osma dor yo‘lining ishga tushirilishi, 300 metrli shishali zamonaviy osma ko‘prikning foydalanishga topshirilishi, Suffa dam olish maskanini va besh qavatdan iborat 400 o‘ringa mo‘ljallangan avtoturargohning ishga tushirilishi sayyohlar sonining yanada ortishiga olib keldi.

Har bir sayyoh o‘zi bilan turli oziq-ovqat mahsulotlari, shaxsiy gigiyena vositalari, shisha va plastik idishlar, plastik paketlar, qog‘oz va boshqa maishiy jihozlarni olib kelishi mumkin.

Chiqindi urnalarida to‘plangan ovqat qoldiqlari milliy bog‘ hududida yashaydigan mayda kemiruvchilar, qushlarni o‘ziga jalb qilishi, turli mikroorganizmlar uchun inkubator vazifasini o‘tashi mumkin. Bu o‘z navbatida Zomin milliy bog‘i yong‘in xavfsizlik choralari kuchaytirish, hududga zamonaviy chiqindi tashlash urnalarini o‘rnatish va hosil bo‘lgan maishiy qattiq chiqindilarni o‘z vaqtida olib ketishni talab etadi.

XULOSALAR

Zomin milliy tabiat bog‘i holatining monitoringi va biologik tizim turg‘unligini ta‘minlash mavzusidagi dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Zomin milliy tabiat bog‘i bo‘yicha ilmiy manbalar va Google earth va ArcGIS dasturlari yordamida masofadan zondlash orqali monitoring kuzatuvlari tahlil qilinganda, ya‘ni uzoq yillar (1981-2023-y.y) mobaynida global isish natijasida hududning o‘rtacha tuproq harorati 1,5–2,5⁰C oshganligi, shuningdek, o‘simliklar qoplamiga va hayvonot dunyosiga jiddiy xavf tug‘dirayotganligi aniqlandi.

2. Zomin milliy tabiat bog‘ida inson faoliyati ta‘sirida yong‘inning sodir bo‘lishi natijasida 100 turdan ortiq yovvoyi o‘simliklarga, jumladan, bir va ko‘p yillik o‘tlarga, mingdan ortiq archa daraxtlari, na‘matak, zirk, bodomcha, uchqat va boshqa butalar yonib ketganligi aniqlandi. So‘nggi yillarda tabiatda antropogen va texnogen omillar ta‘sirining ortishi, yong‘inlarning sodir bo‘lishi hamda o‘rmonzorlardagi daraxtlarning kesilishi tufayli o‘rmon hududlarining qisqarishi oqibatida biologik tizim turg‘unligiga zarar yetayotganligi kuzatildi.

3. Zomin milliy tabiat bog‘i hududi Google earth va ArcGIS dasturlaridan foydalanilgan holda, ya‘ni masofadan zondlash orqali o‘simlik qoplamining o‘zgarish dinamikasi hamda bioekologik holati monitoring tahlil natijalariga ko‘ra, 20 xil kamyob, 107 xil dorivor va ozuqabop hamda 6 xil yovvoyi holda o‘sovchi o‘simliklarning texnik turlari aniqlandi.

4. Zomin milliy tabiat bog‘ining Landsat sun‘iy yo‘ldoshi ma‘lumotlari hamda ArcMap dasturi yordamida 2021-2024-yillar bo‘yicha meteorologik

ma'lumotlar, Cru Data ma'lumotlari asosida yog'ingarchilik va tuproq haroratining xaritalari tuzildi.

5. Zomin erkin turistik zonasida sayyohlik jozibadorligini yanada oshirish maqsadida hududda kuzatuv kameralarini o'rnatish, yong'in xavfsizlik choralarini kuchaytirish, chiqindi urnalarini o'rnatish va maishiy qattiq chiqindilarni olib ketish xizmati bo'yicha dasturiy "*Zomin Travel*" mobil ilovasi ishlab chiqildi.

6. Milliy tabiat bog'i hududida kamyob, dorivor va ozuqabop hamda yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning texnik turlarini saqlab qolish uchun ularni laboratoriya sharoitida ko'paytirish choralarini ishlab chiqish lozim. Yong'in xavfsizligi va uning salbiy oqibatlarining oldini olish bo'yicha aholi o'rtasida tushuntirish-targ'ibot ishlari, shuningdek, milliy bog' hududini nazorat qilishni kuchaytirish, bog' hududini toza va ozoda saqlash uchun mahalliy aholini bevosita jalb etish maqsadga muvofiqdir.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSc.03/27.02.2020. В.01.15 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ
И ПРИРОДООХРАННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

Сакиев Кобилжон Босимович

**МОНИТОРИНГ СОСТОЯНИЯ ЗААМИНСКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО
ПРИРОДНОГО ПАРКА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ
БИОЛОГИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ**

**11.00.05-Охрана окружающей среды и рациональное использование природных
ресурсов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2025.4.PhD/В1598.

Диссертационная работа выполнена в Научно-исследовательском институте окружающей среды и природоохранных технологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб странице Научного совета (<http://www.nuu.uz>) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (<http://www.ziynet.uz>).

Научный руководитель:

Саттаров Музаффар Эштемирович
кандидат биологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Жулиев Мухиддин Комилович
кандидат биологических наук, доцент

Фахрутдинова Машкура Фазлитдиновна
кандидат биологических наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный аграрный университет

Защита диссертации состоится «21» ноября 2025 года в «14⁰⁰» часов на заседании разового научного совета на основе Научного совета DSc.03/27.02.2020.B.01.15 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, д. 4. Корпус факультета Биологии и экологии Национального университета Узбекистана, 2-й этаж, 203-й кабинет. Тел.: (+99871-227-15-44).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под №176) (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, Студенческий городок, ул. Университетская, д.4. Тел.: +99871246-67-72.

Автореферат диссертации разослан «06» ноября 2025 года

(реестр протокола рассылки № «34» от «06» ноября 2025 года).



[Handwritten signature]

Т.У.Рахимова
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

[Handwritten signature]

Р.Х.Аллабердиев
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
к.б.н., доцент

[Handwritten signature]

З.А.Жаббаров
Председатель Научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире факторы, как изменение климата, разнообразные виды антропогенного воздействия и нерациональное использование природных ресурсов, представляют собой серьезную угрозу для устойчивости экосистем особо охраняемых природных территорий и природных парков, а также для сохранения их биологического разнообразия. Эти экологические вызовы, в свою очередь, приводят к таким процессам, как нарушение экосистемного баланса, деградация почв, загрязнение атмосферы и возникновение пожаров в результате нерационального использования природных ресурсов. Поэтому крайне важно обеспечить охрану природных парков на глобальном уровне и защиту их от пожарных рисков, возникающих под воздействием как природных, так и антропогенных факторов, а также принимать оперативные и эффективные меры.

В развитых странах мира осуществляется ряд научных исследований, посвященных сохранению, рациональному использованию и эффективному управлению биоразнообразием на охраняемых природных территориях. В некоторых странах проводятся углубленные исследования, ориентированные на защиту охраняемых территорий и национальных парков, их справедливое использование и предотвращение экологических угроз. В таких государствах, как Германия, Франция, Россия, США и Канада, особое внимание уделяется устойчивому экологическому развитию.

В нашей республике достигнуты значительные результаты в снижении накопления токсичных элементов в окружающей среде, улучшении состояния экосистем и восстановлении загрязненных территорий. Третье направление стратегии «Узбекистан-2030», разработанное с учетом опыта реализации Новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2030 годы и результатов общественных обсуждений, ставит перед собой важные задачи, направленные на «...обеспечение устойчивого сохранения биоразнообразия., а также расширение природоохранных территорий до 12 процентов,»¹. В этой связи значительное внимание уделяется усилению контроля за незаконным использованием объектов животного и растительного мира, повышению уровня экологической культуры и осведомленности населения в вопросах биоразнообразия, мониторингу пожарной обстановки в Зааминском национальном природном парке и обеспечению устойчивости его биологической системы.

Данная научно-исследовательская работа в значительной мере будет способствовать реализации задач, изложенных в Указе Президента Республики Узбекистан № ПФ-6201 от 6 апреля 2021 года «О мерах по созданию туристско-рекреационной зоны «Зомин» и международного

¹ Указ Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158 О Стратегии «Узбекистан – 2030»

всесезонного курорта»¹, а также в Приложении 4 к Постановлению Кабинета Министров № 254 от 28 апреля 2021 года, в частности, в пункте 34 программы «Реализация концепции развития туристско-рекреационной зоны «Заамин» и мер по комплексному развитию сферы туризма в регионе»², а также других нормативно-правовых актах, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики – V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и защита окружающей среды».

Степень изученности проблемы. Исследования природно-климатических условий, почв и флоры Зааминского национального природного парка проводили многие ученые. В частности, О.Э. Кнорринг (1916), М.Г. Попов и Н. Андрасов (1936), В.П. Дробов (1938-1950), В.Д. Дмитриев (1938), И.М. Закрежевский (1935), Е.Е. Короткова (1955), Э.М. Демурина (1975), И.А. Кульбачный (1981), М.Ф. Фахрутдинова (1998), У.П. Пратов, М.М. Научные труды Набиева (2007), В.Н. Тальтских, О.В. Митропольского (2008), Ю.О. Митропольской (2013), Н.С. Абдуллаевой (2016), Н.С. Непосредственное отношение к Зоминскому национальному природному парку имеют работы Абдуллаевой, О.К. Ходжиматова, Н.Х. Каршибоевой, З.А. Янгибаевой (2017), Б.Т. Эргашева, Х.Х. Абдурасулова (2022) и др. В этих исследованиях отсутствует информация о биоэкологическом состоянии и особенностях Зааминского национального природного парка.

Тем не менее, научно-исследовательские работы, касающиеся мониторинга экологического состояния Зааминского национального природного парка, а также анализа динамики изменений растительного покрова на основе данных дистанционного зондирования, оценки состояния многолетних осадков и обеспечения устойчивости биологической системы с применением современных ГИС-технологий практически не проводились.

